O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 7 - mart 70-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 30 yanvardagi “Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash bo‘yicha injiniring kompaniyasi” davlat muassasasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 46-10-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 30 yanvardagi 46-10-0-Q/24-sonli “Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash bo‘yicha injiniring kompaniyasi” davlat muassasasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan**, qaror qilaman**:

1. Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 30 yanvardagi “Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash bo‘yicha injiniring kompaniyasi” davlat muassasasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 46-10-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik uchun qabul qiinsin.

2.Toshkent viloyati hokimligi huzurida “Ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash bo‘yicha injiniring kompaniyasi” davlat muassasasi (keyingi o‘rinlarda – Davlat muassasasi) tashkil etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

“Ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash bo‘yicha injiniring kompaniyasi” davlat muassasasining Nizomi 1-ilovaga muvofiq;

“Ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash bo‘yicha injiniring kompaniyasi” davlat muassasasining tashkiliy tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlangaligi;

Davlat muassasasiga zarur hollarda viloyat hokimligi bilan kelishgan holda tuzilmaga xodimlarning belgilangan umumiy cheklangan soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilganligi inobatga olinsin.

4.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 7-martdagi
70-10-212-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash bo‘yicha injiniring kompaniyasi” davlat muassasasining NIZOMI

I. Umumiy qoidalar.

1. Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash bo‘yicha injiniring kompaniyasi” davlat muassasasi (keyingi o‘rinlarda “Davlat muassasasi” deb ataladi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi “Ma’muriy islohotlar doirasida qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–151-son Farmoniga muvofiq tashkil etildi.

2. Davlat muassasasining rasmiy to‘liq nomi:

davlat tilida: Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash bo‘yicha injiniring kompaniyasi” davlat muassasasi;

rus tilida: Государственное учреждение “Инжиниринговая компания по ремонту многоквартирных домов” при хокимияте области Ташкента;

ingliz tilida: State institution “Engineering Company for the repair of apartment buildings” under the Khokimiyat of Tashkent region of the.

3. Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash bo‘yicha injiniring kompaniyasi” davlat muassasasi davlat muassasasi hisoblanadi.

4. Davlat muassasasi muassisi: Toshkent viloyati hokimligi (keyingi o‘rinlarda “muassis” deb yuritiladi).

5. Davlat muassasasi yuridik shaxs hisoblanadi, alohida mol-mulkka, mustaqil balansga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan, valyuta hisob raqamlariga, ramzlarga, shtamplarga va blankalarga, tovar belgilariga, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va boshqa rekvizitlarga ega.

6. Davlat muassasasi joylashgan manzil (pochta manzili): 100158, Toshkent shahri, Betemir tumani, Xusayin Bayqaro ko‘chasi, 4-uy.

7. Davlat muassasasi o‘z faoliyatida qonun hujjatlari hamda boshqa normativ huquqiy hujjatlar talablariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

8. Davlat muassasasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘z nomidan mulkiy va nomulkiy huquqlarni amalga oshirishi, majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

9. Davlat muassasasi boshqa davlat korxonasining muassisi bo‘lishi mumkin emas.

II. Davlat muassasasi faoliyatining predmeti va maqsadlari.

10. Davlat muassasasi qonun, qonun hujjatlarni, muassisning topshiriqlarini o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash, shuningdek, ushbu Nizomda ko‘rsatilgan vazifalarni bajarishi va xizmatlar ko‘rsatishi Davlat muassasasi faoliyatining predmeti va maqsadi hisoblanadi.

11. Davlat muassasasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari:

- ko‘p kvartirali uy-joy fondi obyektlarini ta’mirlash, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash yo‘nalishlari bo‘yicha buyurtmachi vazifasini bajarish;
- ko‘p kvartirali uy-joy fondi obyektlarini rekonstruksiya qilish va ta’mirlashda rivojlangan tajribalarni qo‘llash;
- tanlov savdolari natijalari asosida pudratchi tashkilotlar bilan tuziladigan shartnomalar bo‘yicha o‘z yo‘nalishi va boshqa obyektlarning qurilishi va rekonstruksiya qilinishi, shuningdek, “tayyor holda topshirish” shartlarini ta’minlash.

12. Davlat muassasasining asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- ko‘p kvartirali uy-joy fondi obyektlarini takomillashtirish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash vazifasini bajarish;
- ko‘p kvartirali uy-joy fondi obyektlarini aholi punktlarini rivojlantirish sxemalari va bosh rejalari bilan bog‘lagan holda rivojlantirish va modernizatsiya hamda rekonstruksiya qilish dasturlarini ishlab chiqish va ularning sifatli bajarilishini ta’minlash;
- kapital qo‘yilmalarini o‘zlashtirish samaradorligini oshirish, investitsion siklning muddatlarini qisqartirish;
- energiya va resurslarni tejovchi texnologiyalarni tatbiq etish;
- loyihaviy yechimlarning samaradorligini ta’minlash, arxitektura va shaharsozlik talablariga rioya qilish;
- yuqori texnologik materiallar va buyumlardan samarali foydalanish;
- Davlat muassasasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy mahsulotlar, idoraviy axborot tizimlari va ma’lumotlar bazasini joriy etish;
- Davlat muassasasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklanishi mumkin.

13. Davlat muassasasi quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- investitsion dasturlarga kiritilgan loyihalarning parametrlarini aniqlashtiradi va

yangi loyihalarni kiritish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;
- investitsiya loyihalari joylashtiriladigan hududlarda muhandislik kommunikatsiyalarini rivojlantirish (yo‘l infratuzilmasi, oqova suv, issiqlik, elektr, gaz, suv ta’minoti, telefonlashtirish va boshqa masalalar)ni ko‘rib chiqish va hal etishda ishtirok etadi;
- investitsion dasturlar va markazlashtirilgan investitsiyalarning ajratilgan limitlar doirasida, manzilli ro‘yxatlar asosida qurilish obyektlari ro‘yxatining loyihalarini shakllantiradi;
- ko‘p kvartirali uy-joy fondi obyektlarini rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlashni rivojlantirish va takomillashtirishga doir kompleks investitsiya dasturlari sxemalarining ishlab chiqilishida ishtirok etadi va ularni amalga oshirilishini ta’minlaydi;
- ko‘p kvartirali uy-joy fondi obyektlarini ta’mirlaydi, modernizatsiya qiladi hamda energiya samaradorligini oshiradi;
- ichimlik va oqova suv tarmoqlarini quradi, ta’mirlaydi, modernizatsiya qiladi hamda energiya samaradorligini oshiradi;
- ko‘p kvartirali uylarda liftlarni almashtiradi, ta’mirlaydi, modernizatsiya qiladi;
- ko‘p kvartirali uy-joy fondiga tutash hududlarni obodonlashtirish;
- ko‘p kvartirali uy-joy fondining, tashqi va ichki elektr ta’minoti tarmoqlarini quradi, ta’mirlaydi;
- ko‘p kvartirali uy-joy fondining gaz ta’minoti tarmoqlarini quradi, ta’mirlaydi;
- ko‘p kvartirali uy-joy fondini sanatsiya va renovatsiya qiladi;
- loyihalarni va tanlov hujjatlarini ishlab chiqadi, shuningdek, shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish uchun birlamchi ruxsat beruvchi hujjatlarini tayyorlaydi, loyihalashtirish bo‘yicha tanlov asosida buyurtmalar joylashtirilishini tashkil etadi;
- loyiha hujjatlarining ekspertizadan o‘tkazilishini, kelishilishini, tasdiqlanishini, shuningdek, ekspertiza organlarining xulosalari hamda pudratchi tashkilotlarning mulohazalari bo‘yicha tegishli hujjatlarga tuzatish yoki qo‘shimchalar kiritilishini tashkil etadi;
- birlamchi ruxsat beruvchi hujjatlar asosida o‘rnatilgan tartibda loyihalashtirishga topshiriq beradi, loyiha va tanlov hujjatlarini berishning calendar jadvalini shakllantiradi va ishlarni bajarish bo‘yicha shartnomalar tuzadi;
- hamkor tashkilotlar bilan eksperimental, ilmiy-tekshirish, arxeologiya ishlari va boshqa ishlarni bajarish bo‘yicha shartnomalar tuzadi;

- dasturlar doirasida ko‘p kvartirali uy-joy fondi inshootlari va tarmoqlarini quradi, mavjudlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilishni amalga oshiradi;
- ko‘p kvartirali uy-joy fondi obyektlarini, loyihalashtirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanadi;
- ko‘p kvartirali uy-joy fondi inshootlarida energiya va resursni tejaydigan yangi texnologiya hamda uskunalarni joriy qilishga oid tavsiyalar ishlab chiqadi;
- ko‘p kvartirali uy-joy fondi obyektlarini o‘z vaqtida ishga tushirish bo‘yicha manzilli dasturlarning amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi va monitoring qiladi;
- ko‘p kvartirali uy-joy fondi obyektlarini qurish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo‘yicha loyiha hujjatlarni joriy qilish, loyihaga oid maqbul
texnik yechimlarni qo‘llash borasida texnik topshiriqlarni ishlab chiqadi;
- ko‘p kvartirali uy-joy fondini kompleks rivojlantirish va modernizatsiya qilishga doir dasturlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag‘lardan samarali va
maqsadli foydalanishni ta’minlaydi;
- amalga oshirilayotgan loyihalarni boshqarish va obyektlar qurilishini texnik kuzatib borish jarayonini tartibga soladi;
- qurilish maydonlarini tanlash va ajratish bo‘yicha komissiyalar ishida ishtirok etadi;
- qurilish, rekonstruksiya va mukammal ta’mirlashning butun davri davomida qurilish normalari va qoidalariga rioya etilishi ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi;
- bajarilgan va to‘lash uchun taqdim etilgan qurilish-montaj ishlari hajmi va

sifatining tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga mosligini nazorat qiladi;
- qurilish normalari va qoidalariga hamda boshqa normativ hujjatlarga muvofiq qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilishda ishtirok etadi;
- konservatsiya qilinishi lozim bo‘lgan obyektlar, binolar va inshootlarni tasdiqlash, bino va inshootlarning konservatsiyasi yoki qurilishini vaqtincha to‘xtatib turish to‘g‘risidagi hujjatlarni rasmiylashtirish, shuningdek, ishlarni davom
ettirish uchun qurilish-montaj tashkilotlariga topshirishda, obyektlarning texnik holatiga baho berishda ishtirok etadi.
Davlat muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham

amalga oshirishi mumkin.

III. Davlat muassasasi muassisining huquq va majburiyatlari.

14. Muassis qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega bo‘ladi:

- Davlat muassasasi Nizomiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Davlat muassasasiga berilgan molmulkdan foydalanishdan olingan sof foydaning bir qismini yoki to‘liq olish;
- Davlat muassasasi mulkiga oid kelishuvlar yoki bitimlarni haqiqiy emas, deb e’tirof etish to‘g‘risidagi da’vo bilan sudga murojaat qilish;
- Davlat muassasasi faoliyatining maqsadi, predmeti va turlarini belgilash;
- Davlat muassasasining ortiqcha, foydalanilmayotgan yoxud belgilangan maqsadda foydalanilmayotgan mulklarini tasarruf etish;
- Davlat muassasasiga yetkazilgan zararlarni undirish to‘g‘risida Davlat muassasasi direktoriga nisbatan da’vo taqdim etish;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Davlat muassasasi direktori bilan tuzilgan mehnat shartnomasini mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muddatidan oldin bekor qilish;
- Davlat muassasasini qayta tashkil etish yoki tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish, tugatish komissiyasini tayinlash va tugatish balanslarini tasdiqlash;
- zarurat bo‘lganda Vazirlar Mahkamasiga kompaniyani xususiylashtirish yoki davlat tasarrufidan chiqarish bo‘yicha takliflar kiritish.

15. Muassis quyidagilarga majbur:

- Davlat muassasasi direktorini tayinlash, mehnat munosabatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq u bilan mehnat shartnomasi tuzish;
- Davlat muassasasining ijro etuvchi organiga mulkni tasarruf etish uchun ruxsatnomalar berish to‘g‘risidagi qarorni tegishli ravishda kelishish;
- Davlat muassasasiga berilgan davlat mulkidan maqsadli foydalanilishini va saqlanishini, shuningdek, uning begonalashtirilishiga oid harakatlarni nazorat qilish.

16. Davlat muassasasi muassisning roziligi bilan qonun hujjatlariga muvofiq yuridik shaxslarning qatnashishiga yo‘l qo‘yiladigan tijorat tashkilotlarida, shuningdek, notijorat tashkilotlarida qatnashchi (a’zo) bo‘lishi mumkin.

IV. Davlat muassasasi ustav fondining miqdori.

17. Davlat muassasasining ustav fondi o‘zida moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun unga muassis tomonidan berilgan mol-mulk va boshqa aktivlar yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

18. Davlat muassasasining ustav fondini shakllantirish, ko‘paytirish va kamaytirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, muassisning qaroriga asosan amalga oshiriladi.

V. Davlat muassasasining mol-mulki va uni tasarruf etish.

19. Quyidagilar davlat muassasasining mulki hisoblanadi:

- muassis tomonidan Davlat muassasasiga operativ boshqaruv huquqi bilan biriktirilgan mulk;
- qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lari hamda o‘z mablag‘lari;
- qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa manbalar hisobidan shakllantirilgan mulklar.

Agar ta’sis hujjatlariga muvofiq muassasaga daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi berilgan bo‘lsa, bunday faoliyatdan olingan daromad va bu daromad hisobidan sotib olingan mol-mulk muassasaning mustaqil tasarrufiga o‘tadi va alohida balansda hisobga olinadi.

20. Tashkil etilgan Davlat muassasasida davlat mulkini operativ boshqarish huquqini topshirish va qabul qilish dalolatnomasi muassasa rahbari va muassis tomonidan imzolangan vaqtdan boshlab yuzaga keladi, qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

21. Davlat muassasasining mulki muassasa xodimlari o‘rtasida taqsimlanishi mumkin emas.

22. Davlat muassasasining mulki quyidagi hollarda qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda muassis bilan kelishgan holda tasarruf etiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi yoki uning hududiy bo‘linmalari roziligi bilan avtotransport vositalarini xarid qilish, bino va inshootlarni

sotib olish va/yoki qurish;

bino va inshootlar (shu jumladan, qurilishi tugallanmagan bino va inshootlar), shuningdek, Davlat muassasasiga tegishli aksiyalar (ulushlar) Davaktiv agentligi tomonidan sotiladi, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasiga tegishli mol-mulklar (bino va inshootlar, aksiyalar, ulushlar va boshqalar) hamda qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Bunda, bino va inshootlarni (shu jumladan, qurilishi tugallanmagan binolari va inshootlarni), shuningdek, Davlat muassasasiga tegishli aksiyalarni (ulushlarni) sotishdan tushgan mablag‘lar ularni sotib olish manbalaridan qat’i nazar, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda taqsimlanadi, O‘zbekiston

Respublikasi
Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.
23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari Davlat muassasalariga xo‘jalik jamiyatlarini ta’sis etish hamda ularning ustav fondi (ustav kapitali)da ishtirok etish taqiqlanadi.
24. Davlat muassasasining bino va inshootlari (shu jumladan, qurilishi tugallanmagan bino va inshootlari), avtomototransport vositalari hamda boshqa asosiy vositalarini sotish va ijaraga berish, shuningdek, ularga tegishli aksiyalarni (ulushlarni) sotish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda “E-auksion” elektron
savdo platformasida auksion savdolari orqali amalga oshiriladi.
25. Davlat muassasasining asosiy vositalarini hamda qurilishi tugallanmagan obyektlarini sotish yoki buzish quyidagi shartlardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining
hujjatlariga muvofiq sotiladiganlari bundan mustasno:
belgilangan xizmat muddatining tamom bo‘lishi (to‘liq yaroqsiz deb topilishi);
ularning jismoniy eskirishi, avariyalar, tabiiy ofatlar, foydalanishning normal sharoitlari buzilishi oqibatida yaroqsiz holga kelishi;
ma’naviy eskirishi;
davlat muassasalari binolari qurilishi, kengaytirilishi, rekonstruksiya qilinishi, modernizatsiya qilinishi va qayta tashkil etilishi munosabati bilan bo‘shab qolishi;
foydalanish zarurati bo‘lmaganda.
26. Davlat muassasasining mol-mulki Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan garovga qo‘yiladi.
Bunda, qonunchilik hujjatlarida belgilangan xususiylashtirilmaydigan davlat mulklari, shuningdek, xo‘jalik jamiyatlariga o‘zgartirilayotgan davlat muassasalari mulklarini garovga qo‘yishga yo‘l qo‘yilmaydi.
27. Davlat muassasasi o‘z tarkibiga kiradigan tashkilotlarga tegishli ko‘chmas mulkni bir tashkilotdan boshqa biriga operativ boshqaruv huquqi asosida o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorni Davaktiv agentligi bilan kelishuvga ko‘ra qabul qiladi.
28. Vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyat organlarining davlat ko‘chmas mulki negizida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va ularning tizimidagi korxonalarga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritilishiga oid

kelishuvlari (bitim, shartnoma, memorandumlar) bo‘yicha majburiy tartibda Davaktiv agentligining xulosasi olinadi.

29. Shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan Davlat muassasasi xodimlari soniga davlat ko‘chmas mulki obyektlarining ishchi xonalari maydoni hisob ko‘rsatkichlari mos kelishi lozim.

30. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi va uning hududiy organlari Davlat muassasasining operativ boshqaruv huquqidagi ko‘chmas mulkni xatlashi va majburiy realizatsiya qilishi mumkin emas,

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

VI. Davlat muassasasining xo‘jalik faoliyati asoslari.

31. Davlat muassasasi alohida mol-mulkka egalik qiladi va mustaqil balans yuritadi.

32. Davlat muassasasining ta’minoti bo‘yicha xarajatlar obyektlar qurilishini qiymatiga kiritiladi va hisob raqamida vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni deposit hisobvarag‘ida saqlash orqali olinadigan dividend hisobiga hamda qo‘shimcha manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

33. Davlat muassasasining tuzilmasi va shtat jadvali, lavozim oylik maoshlari, mehnatga haq to‘lash va mukofotlash tartibi, muassis tomonidan tasdiqlanadi.

34. “Ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash bo‘yicha injiniring kompaniyasi” davlat muassasasini saqlashning moliyaviy manbai bo‘lib ushbu maqsadlar uchun ajratilgan quyidagi mablag‘lar hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining markazlashtirilgan investitsiyalari;

mahalliy byudjet investitsiyalari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

VII. Daromad (foyda)ni taqsimlash.

35. Davlat muassasasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga barcha soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan keyin qoladigan sof foyda, Davlat muassasasi ixtiyorida qoladi va undan muassisning qaroriga binoan foydalaniladi.

VIII. Zaxira jamg‘armasi va boshqa jamg‘armalarni tashkil etish tartibi.

36. Davlat muassasasi o‘z tasarrufida qoladigan sof foyda hisobiga zaxira jamg‘armasini, shuningdek, miqdori va shakllantirish tartibi muassis tomonidan tasdiqlanadigan boshqa jamg‘armalarni tashkil etishi mumkin.

37. Asosiy vositalarni qayta baholash summasi va bepul olingan mol-mulk

qiymati ham zaxira jamg‘armasini to‘ldirishga yo‘naltiriladi.

38. Davlat muassasasining xo‘jalik faoliyati natijasida kelib chiqqan zararlar o‘zining zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga qoplanishi mumkin.

IX. Davlat muassasasi direktorining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

39. Davlat muassasasining joriy faoliyatiga rahbarlik qilish direktor tomonidan amalga oshiriladi.

40. Davlat muassasasi direktori:

- Davlat muassasasining ijro etuvchi organi rahbari hisoblanadi;
- Davlat muassasasi nomidan ishonchnomasiz ish ko‘radi, mamlakatimiz va xorijiy korxonalar, firmalar va tashkilotlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;
- xodimlarni ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzadi, ularni o‘zgartiradi va bekor qiladi;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, muassasa xodimlarini mukofotlaydi, moddiy yordam ko‘rsatadi va ularni rag‘batlantiradi;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnomalar beradi;
- kadrlarni tayyorlash va o‘qitish, ularning malakasini oshirish choratadbirlarini ko‘radi;
- Davlat muassasasining barcha xodimlari uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar, farmoyishlar chiqaradi, ko‘rsatmalar beradi;
- Davlat muassasasining ichki tartib-qoidasi, xo‘jalik faoliyatini tartibga soladigan hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;
- Davlat muassasasining xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi;
- muassis oldida Davlat muassasasi faoliyati to‘g‘risida muassis tomonidan belgilangan tartibda davriy ravishda hisob beradi.

41. Direktor o‘z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarni bajarishda davlat muassasasi manfaatlarini ko‘zlab ish ko‘radi.

42. Direktor byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga to‘lovlarning o‘z vaqtida to‘lanishi, ish haqi to‘lanishi, mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib

chiqadigan talablar va ularga tenglashtirilgan talablar qondirilishi, bevosita ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq ehtiyojlar uchun pul mablag‘lari o‘tkazilishi, o‘zining xattiharakatlari (harakatsizligi) bilan Davlat muassasasiga yetkazilgan zarar, shu jumladan, Davlat muassasasiga berilgan davlat mulki yo‘qotilgan holat uchun ham qonun

hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

X. Hisobotlarni tuzish tartibi

43. Davlat muassasasi hisobot davri tamom bo‘lgandan keyin ro‘yxati qonun hujjatlarida belgilangan vakolatli organlarga moliyaviy hisobot va boshqa hujjatlarni taqdim etadi, hujjatlarning saqlanishi, ularning davlat tomonidan belgilangan tartibda saqlanishi hamda berilishi uchun javob beradi.

44. Xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida Davlat muassasasi faoliyatini nazorat qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muassis va boshqa vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

45. Davlat muassasasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muassis tomonidan belgilangan shaxsga bo‘ysunadi va o‘z faoliyati bo‘yicha unga hisobdordir.

XI. Davlat muassasasining javobgarligi.

46. Davlat muassasasi o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mol-mulk bilan javob beradi.

Davlat muassasasining mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda muassis Davlat muassasasining majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgar hisoblanadi.

47. Davlat muassasasi muassisning majburiyatlari bo‘yicha javobgar hisoblanmaydi.

XII. Davlat muassasasini tugatish va qayta tashkil etish.

48. Davlat muassasasi muassis qaroriga ko‘ra, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yoxud sud qaroriga binoan qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.

49. Davlat muassasasining tugatilishida uning huquq va majburiyatlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o‘tmasdan muassasa faoliyati to‘xtatilishiga olib keladi, qayta tashkil etishda huquq va majburiyatlar huquqiy vorisga o‘tadi.

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 7-martdagi
70-10-212-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Ko`p kvartirali uylarni ta`mirlash bo`yicha injiniring kompaniyasi” davlat muassasaning
NAMUNAVIY TUZILMASI

<table>
<tr><td colspan="2">Direktor
1</td><td></td></tr>
<tr><td>Bosh muhandis
1
Birlamchi-ruxsat beruvchi va loyihalarni boshqarish bo‘limi
4
Qurilishni texnik jixatdan kuzatib borish bo‘limi
12</td><td>Direktor o‘rinbosari
1</td><td>Buxgalteriya
1</td></tr>
<tr><td>Marketing, tanlov savdolarini tashkil qilish, xo‘jalik shartnomaviy munosabatlar va moliyalashtirish bo‘limi
3</td><td>Kadrlar bo‘yicha inspektor
1</td><td></td></tr>
<tr><td>Haydovchi va farrosh
4</td><td>Umumiy bo’lim
1</td><td></td></tr>
<tr><td>Yuriskonsult
1</td><td></td><td></td></tr>
</table>

Davlat msuassasasining jami shtat birligi 30 ta